



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI ERTAKLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Farg'ona Davlat Universiteti
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yuldasheva Dilafroz Maxamadaliyevna
Farg'ona Davlat Universiteti
Ta'lim va tarbiya na'zariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi, 1-bosqich magistranti
Mirzayeva Risolatxon Shokirjon qizi
yuldilaf@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15255099>

Annotatsiya. Maqola ertak terapiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalar nutqini o'stirishga bag'ishlangan. Ertak bolalar ma'naviy olamiga ta'sir qilish bilan birgalikda ularda juda ko'p qobiliyatlarni ham shakllantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada ertaklar orqali bolalarning lug'at boyligi ortishi, grammatik va talaffuz muammolari hal bo'lishi ifodalangan. Ertak terapiya bolalarda obrazli nutqini boyitish usuli sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ertak, ertak terapiya, maktabgacha yoshdagi bola, nutq, grammatik muammolar.

Nutq rivojlanishi bola shaxsiyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nutq orqali bola o'z fikrlarini ifoda etadi, atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi va bilim oladi. Nutq rivojlanishidagi muammolar, bolaning ijtimoiy moslashuviga, o'qish qobiliyatiga va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nutq rivojlanishidagi muammolar turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: lug'at boyligining kamligi, grammatik xatolar, talaffuzdagi nuqsonlar, so'zlashuvdagi qiyinchiliklar. Ushbu muammolarni erta aniqlash va to'g'ri davolash, bolaning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ertak terapiyasi, nutq rivojlanishidagi muammolarni hal qilishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Ertaklar bolaning diqqatini jalb qilib, uning lug'at boyligini oshiradi, grammatik tuzilmalarni o'rganishga yordam beradi va so'zlashuv malakalarini rivojlantiradi.

Ertak terapiyasi – bu bolaning ruhiy va emotsional holatini yaxshilash, shaxsiy muammolarini hal qilish va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ertaklardan foydalanishga asoslangan psixologik usuldir. Ertaklar bolaning ongiga kirib, uning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi. Ertak terapiyasining asosiy usullari quyidagilardan iborat: ertak o'qish, ertak yaratish, ertakni sahnalashtirish, ertak asosida o'yinlar o'ynash va ertakni muhokama qilish. Ushbu usullar, bolaning nutqiy faolligini oshiradi, uning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ertak terapiyasida, bolaning yoshiga, qiziqishlariga va muammolariga mos keladigan ertaklarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Ertaklar bolaning ichki dunyosini aks ettirishi, uning savollariga javob berishi va muammolarini hal qilishga yordam berishi kerak. «Ertak terapiyasi» tushunchasining usul sifatida ta'rifi 1997 - yilda T.D.Zinkevich-Evstigneeva tomonidan berilgan. Uning ta'rifiga ko'ra, «ertak terapiyasi» - bu ruhning ma'naviy yo'li va insonning ijtimoiy realizatsiyasi haqidagi bilimlarni uzatish usullari to'plami, insonning ma'naviy tabiatiga mos keladigan ta'lim tizimidir.

I.Vachkovning so'zlariga ko'ra, ertak maktab yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish usuli sifatida ikkita muhim vazifani hal qilishga imkon beradi:

1. «Oyna» ning vazifasi. Ertak bolaga o'zini ko'rishga, o'zi bilan uchrashishga yordam beradi, shuning uchun o'z-o'zini anglashni rivojlantiradi va shaxsiy makonini uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, Zumrad va qimmat obrazlari. 2. «Kristal» ning vazifasi. Ertak terapiyasi tufayli bola atrofdagi dunyoni va uning atrofidagi odamlarni yangicha ko'ra oladi,



shuning uchun odamlar va umuman dunyo bilan yangi, konstruktiv munosabatlar o'rnatadi. Ertak terapiyaning bola rivojlanishiga kompleks ta'siri quyidagilardan iborat:

Lug'at boyligi: Ertaklar bolaga yangi so'zlar va iboralar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ertaklardagi obrazli til bolaning tasavvurini boyitadi va uning nutqini rang-barang qiladi. Grammatik tuzilmalar: Ertaklar bolaga grammatik tuzilmalarni o'rganishga yordam beradi. Ertaklardagi to'g'ri tuzilgan gaplar bolaning grammatik xatolarini kamaytirishga va uning nutqini ravon qilishga xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati: Ertaklar bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ertaklardagi muammoli vaziyatlar bolani mustaqil fikrlashga, yechimlar topishga va qarorlar qabul qilishga undaydi. Ertak terapiya quyidagi bosqichlarda olib boriladi: Ertakni tanlash, bolaning yoshi, qiziqishlari va muammolariga mos keladigan ertakni tanlash. Ertakning syujeti, personajlari va til uslubi bolaga tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak.

Ertakni o'qish: Ertakni ifodali va ta'sirli o'qish. Ertakni o'qish jarayonida, ovoz ohangini o'zgartirish, turli personajlarni tasvirlash va bolaning diqqatini jalb qilishga harakat qilish kerak. Ertakni muhokama qilish: Ertakni o'qib bo'lgandan so'ng, uni muhokama qilish. Muhokama jarayonida, bolaning fikrlarini so'rash, uning his-tuyg'ularini tushunish va ertak qahramonlariga o'xshash vaziyatlarni tahlil qilish foydali. Xozirgi texnologiya davrida bolalarga ertaklarni yanada qiziqarliroq va tasirliroq qilib yetkazish uchun turli xil texnik vositalardan ham foydalanishimiz mumkin. Bugungi kunda texnologiyalarning tez rivojlanib borayotganligi, ta'limda yangiliklarni joriy etish va bolalarni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlarini saqlagan holda ularni birlashtirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bolalarning madaniy o'zligini shakllantirishdagi va turli ilova va texnologiyalar yordamida ta'limni yanada samarali qilishda katta rol o'ynaydi. Zamon talablariga ham nafas bo'lgan holda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Ertak terapiya maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini samarali o'stirishga yordam beradigan usuldir. Bola ertak davomida yangi so'zlarni o'rganadi, qahramonlar xarakteri va ovozi orqali obrazli nutqi rivojlanadi. Nutq rivojlanishi bola shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydi, chunki nutq orqali bola o'z fikrlarini ifoda etib, atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi hamda bilim oladi. Ertak terapiyasi, grammatik tuzilmalarni o'rganishga yordam berish va so'zlashuv malakalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. Тамарченка Н.Д. Поэтика: слов актуал терминов и понятий. – М.: Издательство Кулагинной; Интрада, 2008.
3. Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
4. Раҳмон Ш. Абдилят оралаб (тўплаб, нашрга тайёрловчилар: Г.Раҳмонова, О.Толиб; масъул муҳаррир И.Мирзо). – Тошкент: Мовороуннаҳр, 2012.
5. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2017.
6. Babayeva D.R Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – TDPU, 2018.
7. Qodirova F.R. Katta guruh uchun nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulot ishlanmalari. – Toshkent, 2011.
8. Sobirovich, Soliyev Ilhom, and Toychiyeva Shokhidaxon Qakhramon Kizi. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarni zamonaviy texnologiyalar orqali singdirish." Eurasian Journal of Technology and Innovation 3.1 (2025): 33-36.
9. Mirzayev, O. (2023). ERTAK-TERAPIYASI VA TADBIRKORLIK MADANIYATI ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING METODIK TIZIMI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(25), 92-94.